O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:908

Odilbek Y.HAMRAYEV,
Tayanch doktorant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbeksiton
E-mail: o.khamraev@gmail.com, FQD-0626-0162

FarDTU, PhD U.Tojiboyev taqrizi asosida

XIVA XONLIGIDA AYRIM SAROY UNVONLARINING TARTIBLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xiva xonligida amalga oshirilgan ma’muriy islohotlar, davlat boshqaruv tizimi va saroy unvonlari tizimining tarkibiy tuzilishi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida Xiva xonligining markaziy va hududiy boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar, Oliy Kengash faoliyati, shuningdek, unvon va mansablar tasnifi tafsilotlari bilan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, Abulg‘oziy Bahodirxon, Muhammad Rahimxon I, ma’muriy islohot, Oliy Kengash, inoq, otaliq, amir ul-umaro, saroy unvonlari, davlat boshqaruvi, protektorat, Rossiya imperiyasi, XIX asr, Xorazm, tarixiy manbalar.

ПОРЯДОК И ИЕРАРХИЯ НЕКОТОРЫХ ПРИДВОРНЫХ ТИТУЛОВ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ

Аннотация

В данной статье проводится углублённый анализ административных реформ, осуществлённых в Хивинском ханстве, системы государственного управления и структурной организации придворных титулов. На основе исторических источников и современной научной литературы подробно рассматриваются изменения в системе центрального и местного управления Хивинского ханства, деятельность Высшего совета, а также особенности классификации придворных титулов и государственных должностей.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Абулгази Бахадур-хан, Мухаммад Рахим-хан I, административная реформа, Высший совет, инак, аталык, амир аль-умара, придворные титулы, государственное управление, протекторат, Российская империя, XIX век, Хорезм, исторические источники.

THE ORDER AND HIERARCHY OF SELECTED COURT TITLES IN THE KHANATE OF KHIVA

Annotation

This article provides an in-depth analysis of the administrative reforms implemented in the Khanate of Khiva, its system of state administration, and the structural organization of court titles. Drawing on historical sources and contemporary scholarly literature, the study examines in detail the transformations in the central and local administrative systems of the Khanate of Khiva, the activities of the Supreme Council, and the specific features of the classification of court titles and official positions.

Keywords: Khanate of Khiva, Abulghazi Bahadur Khan, Muhammad Rahim Khan I, administrative reform, Supreme Council, inaq, ataliq, amir al-umara, court titles, state administration, protectorate, Russian Empire, nineteenth century, Khorezm, historical sources.

Kirish. Dalat boshqaruvining Markaziy Osiyo davlatlariga xos bo‘lgan xususiyat Xiva xonligida ham kuzatilsada, ba’zi sifatiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, XVI – XVIII asrlarda xonlik ma’muriy jihatdan viloyatlarga bo‘lingan. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab esa davlatdagi asosiy ma’muriy hududlar beklik deb atala boshlaydi. Rus olimi P.P.Ivanovning “Xiva xonligi arxivida”[1] gi ma’lumotlarida xonlikda 16 ta beklik va 2 ta noiblik mavjud ekanligi, ular Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko‘hna Urganch, Qo‘shko‘prik, Pitnak, Qiyot, Shobboz (Shohabboz), Shovot, Toshhovuz, Ambarmanak, Urganch, Xo‘jayli, Shumanay va Qo‘ng‘irot bekliklari hamda Beshariq va Qiyot-Qo‘ng‘irot noibliklaridan iborat ekanligini qayd etadi. Bekliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar yoki noiblar boshqargan. Shuningdek, poytaxt boshqaruvi xon va bosh vazir ixtiyorida bo‘lib, xonlikning poytaxti turli davrlarda siyosiy vaziyatlarga qarab (Vazir, Kat, Ko‘hna Urganch, Xiva shaharlari bo‘lgan) o‘zgarib turgan. Ba’zi manbalarda xonlikdagi siyosiy jarayonlar Xiva xonlaridan Abulg‘ozixon hokimiyat tepasiga kelgan birinchi kundan boshlab asosiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lganligini yozadi. Masalan u e’tiborini davlatni mustahkamlash masalasiga qaratar ekan, dastlab turkman zodagonlarini davlat boshqaruvi ishlaridan chetlashtirdi. Hattoki ularning qo‘llaridagi molu mulklarini, yer-suvlarini tortib olib, o‘zlarini saroydan tashqariga quvg‘in qildi. Siquvga olingan turkman zodagonlari Xurosonga, Janubiy Turkmanistonga, Abulxon va Mang‘ishloqqa ko‘chib ketishga majbur bo‘ladilar[2]. Xonlikning barcha yuqori lavozimlari o‘zbek hukmdorlari qo‘liga topshirildi.

Adabiyotlar tahlili. Abulg‘ozixonning ma’muriy islohot o‘tkazganligi, xonlikning markaziy boshqaruv tizimini batamom yangidan tashkil etilganligi xususida Xiva tarixchisi Munis o‘zining “Firdavs ul-iqbol” asarida batafsil ko‘rsatishga harakat qilgan. Xususan, asarda aytilishicha amaldorlar asosan o‘zbek zodagonlaridan 360 kishini[2] xonlikning turli lavozimlariga tayinlagan. Shulardan eng obro‘li 32 kishiga saroyda o‘z yonidan o‘rin beradi[2]. Ular xonning yaqin maslahatchilari bo‘ladilar. Shuningdek, saroyda 32 ta markaziy boshqaruv lavozimlarini tashkil etib, ular quyidagicha taqsim etilgan: 2 ta shayxulislom, 1 ta mutavalli, 1 ta noib, 4 ta otaliq, 4 ta inoq, 4 ta mirob, 4 ta biy, 1 ta parvonachi, 2 ta aka, 2 ta arbob, 4 ta chig‘atoy-inoqi, 1 ta vazir (u mehtar deb yuritilgan) va yana 1 ta qushbegi lavozimlaridir[2]. Tarixchi olim T.Xudoyqulovning tadqiqotlarida ham Abulg‘ozixon islohotlari xususida ba’zi ma’lumotlar tahlil qilingan bo‘lib, ularda aytilishicha Abulg‘ozixon o‘zbeklarni va yerli aholining nufuzli vakillarini davlat boshqaruv ishlariga jalb etib, ular orasida ma’lum barqarorlikni vujudga keltiradi[3]. Davlat hokimiyatining

mustahkamlanishi Abulg‘ozixonga ichki va tashqi siyosatni keng ko‘lamda amalga oshirish imkoniyatini beradi[4].

XVII asrda Xivada muayyan bir sulola hukmdor emas edi. Tarixchilar bu haqida quyidagicha ma’lumotlar taqdim etadi. Shulardan birida Chingiziylar sulolasiga mansub ba’zi shaxslar Xivaga chaqirilib xonlik taxtiga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, amalda hokimiyat qo‘ng‘irot sulolasidan bo‘lgan inoq qo‘lida bo‘lgan. 1804 yildan boshlab faqat qo‘ng‘irotlar sulolasi vakillari Xivada xon bo‘lganlar[5]. Yoki shu kabi ma’lumotlar tarixchi olim A.Ziyo tadqiqotlarida ham eslab o‘tiladi. Jumladan, “XVII asrga kelib esa Xiva va Buxoro xonliklari o‘rtasidagi munosabatlarda bir oz o‘zgarish yuz bergan. Ya’ni shu asrdan boshlab Buxoro xonligi boshqaruvini qo‘lga olgan yangi sulola - ashtarxoniylar namoyandasi Nazr Muhammadxon zamonida Xivada uning nomidan xutba o‘qilgani hamda 1678 yili keyingi ashtarxoniylardan Subxonqulixonning Xivaga o‘z noibi Shohniyoz eshikog‘oboshini yuborgani hisobga olinmasa, xivaliklardan Abulg‘oziy Baxodirxon (1644 -1664 yy) va Anushaxon (1664 -1687 yy) davrlarida Buxoro qo‘l ostidagi hududga muttasil harbiy yurishlar uyushtirilib turilganini bilamiz. Xususan, Abulg‘oziy Baxodirxonning o‘zi olti marta shunday tadbirni amalga oshirgan bo‘lsa, o‘g‘li Anushaxon 1684 yili hatto Samarqandni egallab bu yerda o‘z nomidan xutba o‘qitgan. Lekin shunga qaramay Buxoro keyinchalik ham Xivaga nisbatan olib borgan siyosatidan voz kechmagan. Chunonchi, yuqorida tilga olingan Muhammad Amin inoq Xivada hokimiyatni qo‘lga olishda Buxoro madadiga suyangani ma’lum. Bu haqda xorazmlik tarixchi Munis guvohlik beradi. Shunday qilib, 1770-yildan boshlab Xivada (Xorazmda) yangi sulola - qo‘ng‘irotlar siyosiy faoliyati boshlanadi[6].

Xiva xoni Muhammadxon Rahimxon I (1806 – 1825 yy.) davrida xonlikning ma’muriy boshqaruv tizimi tubdan o‘zgartirildi. Bu haqida Tarixchi olim T.Xudoyqulov o‘zining dissertatsiyasida Bayoniyning “Xorazm tari” nomli asariga asoslanib ma’lumotlarni quyidagicha tahlil qilib beradi. Xususan, tadqiqotda berilishicha byekliklarning markaziy hokimiyatga bo‘ysunmasligini hisobga olib, Muhammadxon Rahimxon I xonlik hududida kentlarga ajralishni bekor qildi va manbalarga ko‘ra, xonlikda avval 15 ta, keyinroq yana 11 ta hokimlik tashkil etgan. Bular quyidagilar edi: Xazorasp, Ostona, Urganch, Kat, Toshhovuz, Qo‘shko‘prik, Oqdarband, Gurlan, Ko‘k qashqa, Qo‘ng‘irot, Ko‘hna Urganch, Ilonli, Taxta, Xonqa, Shobboz, Manoq, G‘oziobod, Shayx, Mang‘it, Xo‘jayli, Shumanay, To‘rchi, Oqtepa, Qorag‘on, Xitoy. Hokimliklar o‘z navbatida masjid-qavmlarga bo‘lingan. Manbalar xonlikda jami 1537 ta masjid-qavmlar bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi. Viloyat hokimlari xon tomonidan, masjid-qavmlarning qozi va oqsoqollari esa viloyat hokimlari tomonidan tayinlangan[7].

Umuman olganda xonlikning ma’muriy jihatdan chegarasi hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qozog‘iston va Turkmaniston Respublikalarining bir qismini o‘z ichiga olgan davlat edi deb xulosa qilssa bo‘ladi.

Natijalar va muhokama. Xiva xonligida unvon va mansablarni saroy, harbiy va diniy unvon hamda va amallarga bo‘lish mumkin. Tarixchi olim Sh.Vohidovning fikricha, bu tasnif sof nazariy bo‘lib, aslida xonlik davrida muayyan unvon va mansablar sohalar bo‘yicha berilmagan[8]. Yana ta’kidlash mumkinki, o‘sha vaqtda amaldor va unvon egasi ko‘pincha xonga nisbatan shaxsiy sadoqati, qavmi yaqinligidan bir mansabdan boshqa mansabga o‘tib, unvonlar sohibiga aylangan. Boshqa o‘zbek xonliklari kabi Xiva xonligida ham eng oliy unvon xon bo‘lib, u ma’muriy, siyosiy va harbiy vakolatlarga ega edi.

Xiva xonligi davlat tizimida xon huzurida Oliy Kengash mavjud bo‘lib, bu amal Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi davlат tizimidan ancha farq qilgan. “Государственные документы Хивы XIX век” – “Xivaning XIX asrdagi davlat hujjatlari” kitobida – bu Oliy Kengashni Muhammad Rahimxon I “o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo‘lgan urug‘ oqsoqollari kengashi o‘rniga ta’sis etgan edi. Unga turli da’vo va jinoiy ishlarni ko‘rish va qaror chiqarish huquqini berdi”, degan ma’lumotlar qayd etiladi. Shuningdek, “... Kengashning vakolati chegaralangan bo‘lib, maslahat beruvchi organga o‘xshaydi, uning a’zolari eng yuqori mansab va unvondagi amaldorlar bo‘lgan. Kengash majlisida boshqa amaldorlarga qaraganda qo‘proq inoq, shayx ul-islom, devonbegi va yasuvulboshi hal etuvchi ovozga ega bo‘lgan. Kengash majlislari masalaning muhimligiga qarab, xon tomonidan chaqirilar edi. Oliy Kengash oqsoqollardan, ya’ni ma’lum mansab va unvon egalaridan, chunonchi, naqib, shayx ul-islom, mutavvalli, mirob, qozi, farmonchi, darg‘a, shig‘ovul, dasturxonchi, arbob, miroxo‘r kabilardan iborat edi. Shuningdek, xonning qarindosh-urug‘laridan bo‘lgan beklar, otaliq, inoq va biylar ham bu kengashga kirganlar[9]. Demak, shu kabi ma’lumotlarning ilmiy qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu tor doiradagi Kengash amalda yuqori qonun chiqaruvchi ma’muriy va sud hokimiyati bo‘lgan. Kengashning vakolatlari haqiqatdan ham keng bo‘lib, xonlikning ichki ishlariga doir hamma masalalar bo‘yicha qaror qabul qilar va boshqa davlatlar bilan bo‘lgan tashqi munosabalariga doir muammolarni ham hal etgan. Bizning fikrimizcha, Kengashning vakolat doirasi keng bo‘lsada, avvalo xonning xohish - irodasiga bog‘liq bo‘lgan.

Endi Xiva xonligidagi saroy unvon va mansablarining sifatiy va amaliy jihatdan (turli manba va ma’lumotlar tahlilidan kelib chiqib) taqsimlanishiga e’tibor qaratilsa ular quyidagicha taqsimlangan edi. Xususan, unvonlar orasida eng kattasi inoq edi. Odatda inoqlar eng qudratli o‘zbek urug‘laridan tayinlangan hamda ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo‘lgan. Inoqlar yirik amaldor, ya’ni urug‘ boshlig‘i hisoblangan. Abulg‘ozixon tantanali marosimlarda o‘tirish uchun inoqlarga o‘z yonidan to‘rtta joy ajratgan. Inoqlar biy, sulton, mingboshi kabi unvonlarni ham olganlar. XX asr boshlariga kelib inoqlar bek martabasiga tushib, oliy saroy amaldorlaridan ma’muriy mansab egalariga aylanadilar[10]. T.Xudoyqulovning ta’kidlashicha inoqlik lavozimiga 4 nafar shaxs tayinlangan. Yana shukabi otaliq lavozimiga, miroblik vazifalari ham to‘rt nafar shaxsga berilib, ular juda yuqori martabali mansab sanalgan[11].

Tadqiqot ishimizda Xiva xonligining markaziy boshqaruvidagi asosiy unvon va mansablar haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tadigan bo‘lsak ular quyidagicha tavsiflanadi:

Otaliq – urug‘ oqsoqoli. Inoq boshliq to‘pa (guruh) ga birlashgan urug‘ boshlig‘i. Xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo‘lgan. Otaliq qilich va pichoq taqib yurgan.

Biy – saroy unvoni. Inoq va otaliqdan keyingi martaba. Biy qabila va urug‘ning boshlig‘i hisoblanib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan o‘zbeklarning urug‘ oqsoqollariga beriladigan unvon edi. XVII – XIX asrlarda biylar yirik o‘zbek qabila va urug‘lariga boshchilik qilib, faqat markaziy hokimiyatga itoat etganlar. Biy unvoni avloddan avlodga meros qilib qoldirilgan. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidayek (o‘xshashalik tomoni), saroyda to‘rt nafar biy bo‘lib, ular ham eng kuchli qabila vakillari bo‘lgan[11].

Amir ul-umaro – amirlarning amiri Xiva xonligida XIX asr o‘rtalarida ta’sis etilgan. Lekin mahalliy tarixnavis Munis “amir” unvoni XIX asr o‘rtalaridan oldin ham bo‘lganligini qayd etadi. Lekin bunday unvon va mansab Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarida, so‘nggi davr manbalari yoki tadqiqotlarida (XIX–XX asr boshida “maosh to‘lanadigan davlat arboblari ro‘yxati”da) ham keltirilmagan. Balki “amir”

so‘zi mualliflar tomonidan u yoki bu to‘raga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lishi mumukin. “Dili g‘aroyib” asarining muallifi shu asarni bag‘ishlab yozgan Hazoraspdagi inoq Rahmonqulini “amir” deb atarkan, aslida bu o‘rinda Rahmonquli to‘raning “amir ul-umaro”lik mansabi ko‘zda tutilgan[12]. Haqiqatan ham, bu inoq shu davrda hokimiyatni boshqargan akasi Olloqulixon qo‘shinida amir ul-umarolik vazifasini bajarar edi[11].

Xulosa. Xonlikning markaziy boshqaruvidagi ichki va tashqi omillariga xulosa qilib aytish mumkinki, XIX asrning oxirgi choragiga kelib xonlikning ijtimoiy siyosatida katta o‘zgarishlar kuzatiladi. Buning asosiy sabbabi 1873 yildan e’tiboran Xiva xonligi ustidan podsho hukumati o‘zining protektorat hududi sifatida qattiq nazorat o‘rnatdi. Natijada xonlikning ichki va tashqi siyosatidagi arzimas o‘zgarishlar uchun Xiva xoni Turkiston general-gubernatori bilan kelishib olishi lozim bo‘lgan. Shuningdek, xon ustidan nazorat qilish maqsadida 7 kishidan iborat Kengash (devon) ta’sis etilib, ularning to‘rt nafari podsho hukumati vakillari bo‘lgan. Amudaryoning avval Xiva xonligi tasarrufida bo‘lgan va Gandimiyon shartnomasiga ko‘ra podsho Rossiyasi ixtiyoriga o‘tgan o‘ng qirg‘og‘i hududida Turkiston general-gubernatorligining Amudaryo bo‘limi tashkil qilingan edi.

ADABIYOTLAR

1. Иванов П. П. Архив хивинских ханов XIX в. // Исследование и описание документов с историческим введением. Новые источники для истории народов Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1940.; Иванов П. П. Архив хивинских ханов // ЗИВАН СССР. – Т. VII. – Москва–Ленинград, 1939. Иванов П. П. История царствования Сейид-Мухаммед-хана (1856–1865). «Гульшен-и-давлат». Сочинение Мухаммед Риза Мираба Агехи // МИК. – Т. VII. – Москва–Ленинград, 1935.
2. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Tarjimon Sh.Vohidov. Yangi asr avlodi., 2010. – B. 91.
3. Xudoyqulov T.D. O‘zbek xonliklarida davlat boshqaruvi tizimi va konsepsiyasi // Qar DU xabarlari (maxsus son). – Qarshi, 2021. – B. 171 – 174.
4. Abulg‘ozi Bahodirxon.Shajarayi turk / Nashrga tayyorlovchilar Q.Munirov, Q.Mahmudov. – Toshkent: O‘qituvchi,1992. – B.12, 159 – 189.
5. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi. 2012. – B. 389.
6. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga kadar) // Mas’ul muharrir: B. Axmedov. – T.: «Sharq», 2001. – B. 288.
7. Xudoyqulov T. Markaziy Osiyo davlatlarining boshqaruv tarixi (markaziy, mahalliy, harbiy, diniy hokimiyat (XVIII –XX asr boshlari)). Tarix fanlari doktori (DSc) diss. – Qarshi. 2021. – B. 60-70.; Bayoniy. Xorazm tarixi, 376 a varaq.
8. Vohidov Sh.H. Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligidagi unvon va mansablar. Toshkent.: 1996. – B. 7.
9. Государственные документы Хивы XIX в. Том II. Издательство академии наук Узбекиской ССР, –Ташкент; 1960. – С. 76.
10. Yo‘ldoshev M.Y. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1959. – B. 286.
11. Xudoyqulov T. Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent.: 2023. – B. 236.
12. Xudoyberdi Avaz Muhammad. Dili g‘aroyib. Qo‘lyozma, O‘z FASHI. – № 9320; – 343 b.